XALQ DEPUTATLARI QARSHI SHAHAR KENGASHI
Q A R O R I

2021 - yil 30 - dekabr VI-29-61-4-69-K/21 Qarshi shahar hokimligi

2022 yil uchun Qarshi shahar mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

Budjet kodeksining 99-moddasi, “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Qarshi shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Qarshi shahar mahalliy budjetining 2022 yil uchun daromadlari 184,9 mlrd.so‘m, xarajatlari 226,4 mlrd.so‘m prognoz qilinganligi hamda yuqori turuvchi budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 41,4 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022 yil uchun Qarshi shahar mahalliy budjeti daromadlarining asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022 yil uchun shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga

muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2022 yil uchun viloyat budjetidan shahar mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. 2022 yil uchun shahar mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022 yil uchun shahar mahalliy budjeti zahira jamg‘armasi hajmi 2,1 mlrd.so‘m miqdorida belgilansin.

shahar budjetining 2022 yil uchun zahira jamg‘armasi tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

9. 2022 yil uchun shahar mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022 yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va

ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

11. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Raxmonqulov), Moliya bo‘limi (Sh.Ashurov), Davlat soliq inspeksiyasi (I.Salomov) mas’ul bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon hamda kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

shahar mahalliy budjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Shahar davlat soliq inspeksiyasi (I.Salomov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l

qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Shahar davlat soliq inspeksiyasi (I.Salomov), Kadastr agentligi shahar bo‘limi (M.Xushov) 2022 yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, shaharda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Majburiy ijro byurosi Qarshi shahar bo‘limi, shahar davlat soliq inspeksiyasi (I.Salomov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

15. Qarshi shahar Mahalla va oilani qo‘llab-quvatlash bo‘limi (N.Xonqulova) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

16. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi (Sh.Bo‘riev), Bo‘sh turgan ob’ektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Qarshi shahar hududiy bo‘limi bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra shaharda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki

ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «ye-ijro auction» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

17. Qarshi shahar davlat soliq inspeksiyasi (I.Salomov), shahar moliya bo‘limi (Sh.Ashurov) Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi bilan hamkorlikda davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2022 yilning 1 iyuliga qadar 2021 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2022 yilning 1 sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

18. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Raxmonqulov), Monopoliyaga qarshi ko‘rashish qo‘mitasi viloyat hududiy bo‘limi bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

19. Shahar ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, shahar yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi, Davlat xizmatlari agentligi shahar bo‘limlari hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

20. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari

hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

21. Shahar mahalliy budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, shahar Kengashi deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlar qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytiga joylashtirib borilsin.

22. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Raxmonqulov), xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati, tegishli bo‘lim boshliqlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

23. Shahar hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

24. Mazkur qaror “Qashqadaryo” gazetalarida rasmiy e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

25. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va shahar hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

26. Xalq deputatlari Qarshi shahar Kengashining 2020 yil 30 dekabrdagi 96/13-6-sonli qarori 2022 yil 1 yanvar kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

27. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **N.Xolboyev**

Халқ депутатлари Қарши шаҳар Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-29-61-4-69-K/21-сон қарорига
1-илова

Qarshi shahar mahalliy budjeti daromadlarining
2022 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘mda)

№	Daromad turlari	
	Jami daromadlar	**184 994 000**
I.	**Rag‘batlantiruvchi (Stimuliruyuщie) daromad**	**42 780 000**
	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	*427 800 000*
	ajratma meyori	***10***
1.	mahalliy budjetga	42 780 000
	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	*37 000 000*
	ajratma meyori	
2.	mahalliy budjetga	
II.	**Biriktirilgan daromadlar**	**142 214 000**
	Tuman va shaharlarga biriktirilgan	**142 214 000**
1	Yagona soliq to‘lovi	53 671 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	8 800 000
3	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)	43 000 000
	ajratma meyori	***20***
	mahalliy budjetga	8 600 000
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 000 000
	ajratma meyori	***100***
	mahalliy budjetga	7 000 000
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	14 702 000
6	**Yer solig‘i**	**36 267 000**
	Yuridik shaxslar yer solig‘i	24 229 000
	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	12 038 000
7	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	420 000
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	550 000
9	**Boshqa tushumlar**	**12 204 000**
	Ijara to‘lovlari	1 058 000
	Davlat bojlari	8 750 000
	Davlat tashkilotlari foyda solig‘i	2 396 000
	Yig‘imlar	38 403 000

III.	**Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo‘yicha)**	
	Aholi soni (ming kishi)	
10	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	
11	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	
12	Tamaki mahsulotiga aksiz solig‘i	
	Ma’lumot uchun: 2021 yil parametr	*95 924 711*
IV.	**JAMI XARAJATLAR**	**226 404 199**
V.	**TRANSFERTLAR**	**41 410 166**

Халқ депутатлари Қарши шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-29-61-4-69-K/21-сон қарорига
2-илова

2022 yil uchun Qarshi shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larining cheklangan miqdorlari

(ming so‘mda)

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**226 404 166,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**226 404 166,0**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**0,0**
	Shaxar mahalliy budjetiga transfertlar	
1.	**Xalq ta’limi bo‘limiga**	**22 786 564,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	22 786 564,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
2.	**Maktabgacha ta’lim bo‘limiga**	**11 380 106,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 380 106,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
3.	**Sog‘liqni saqlash muassasalariga**	**81 433 387,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	81 433 387,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
4.	**Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar**	**142 508,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	142 508,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
5.	**Madaniyat bo‘limiga**	**863 973,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	863 973,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
6.	**Jismoniy tarbiya va sport bo‘limiga**	**1 628 795,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 628 795,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0

7.	**Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar**	**46 521 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	46 521 000,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
8.	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limiga**	**675 939,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	675 939,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
7.	**Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun**	**1 889 513,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 889 513,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
8.	**Obodonlashtirish boshqarmasiga**	**30 431 658,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	30 431 658,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
9.	**Davlat hokimiyat organlari**	**9 368 656,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 368 656,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
10.	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	**6 319 806,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 319 806,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
11.	**Ijtimoiy moslashuv markazlari**	**147 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	147 000,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
12.	**Zahira jag‘armasi**	**2 136 261,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 136 261,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
13.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**10 679 000,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	10 679 000,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0

Халқ депутатлари Қарши шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-29-61-4-69-K/21-сон қарорига
3-илова

2022 yilda umumdavlat soliqlari bo‘yicha tushumlarning Qarshi shahar mahalliy budjetiga ajratiladigan me’yorlari

(foizda)

Umumdavlat soliqlari	**Mahalliy budjetga ajratma miqdori**
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	100
Yuridik shaxslarning yer solig‘i	100
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	100
Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	100
Aylanmadan olinadigan soliq	100
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	10
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0
Ijara to‘lovi	0
Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	0
Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	100
Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)	20

Халқ депутатлари Қарши шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-29-61-4-69-K/21-сон қарорига
4-илова

2022 yilda mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori

(ming so‘mda)

Yozuv mazmuni	**Tartibga soluvchi transfertlar miqdori**
Qarshi shahar budjeti	41 410 166

Халқ депутатлари Қарши шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-29-61-4-69-K/21-сон қарорига
5-илова

Qarshi shahar mahalliy budjetining
2022 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

(ming so‘mda)

Yozuv mazmuni	**Daromad ***	**Xarajat**
Qarshi shahar budjeti	184 994 000,0	226 404 166,0

** mobil aloqa xizmatlari uchun, alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo va tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig‘idan tushumlar bo‘yicha o‘tkazib beriladigan daromadlar bilan birgalikda.*

Халқ депутатлари Қарши шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-29-61-4-69-K/21-сон қарорига
6-илова

2022 yil uchun shahar mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

(ming so‘mda)

Yozuv mazmuni	**mablag‘lar miqdori**
Qarshi shahar budjeti	1 562 051